



**BANK KREDITLARINI BERISH ORQALI AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH  
YO'LLAR BILAN ISHLASHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI**

**Maxmadiyorov Iskandar Shodiyor o'g'li**

*TDIU mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** *Ushbu tezisdagi bank kreditlari orqali aholi bandligini ta'minlash mexanizmlarining amaldagi holati tahlil qilingan. Tadqiqotda tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning tadbirkorlik subyektlari va o'zini o'zi band qilish faoliyatiga ta'siri o'rganilib, ularning yangi ish o'rinlarini yaratishdagi roli baholangan. Shuningdek, kreditlash jarayonida uchrayotgan muammolar, xususan, kredit resurslaridan foydalanish samaradorligi, foiz stavkalari, garov ta'minoti va aholining moliyaviy savodxonligi bilan bog'liq masalalar yoritib berilgan. Tezisdagi bank kreditlari orqali aholi bandligini oshirish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.*

**Kalit so'zlar:** *bank kreditlari, aholi bandligi, tadbirkorlikni moliyalashtirish, mikrokreditlash, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kredit siyosati.*

**Annotation.** *This thesis analyzes the current state of mechanisms for ensuring employment of the population through bank loans. The study examines the impact of loans provided by commercial banks on entrepreneurial entities and self-employment activities, and evaluates their role in creating new jobs. It also highlights the challenges encountered in the lending process, particularly issues related to the efficiency of loan utilization, interest rates, collateral requirements, and the financial literacy of the population. The thesis proposes practical recommendations and suggestions aimed at expanding opportunities to increase employment through bank lending.*

**Keywords:** *bank loans, employment, entrepreneurship financing, microcredit, financial support, credit policy.*

Mamlakatimizda bank-moliya tizimi nafaqat iqtisodiyotning muhim bo'g'ini, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi omil sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa, aholi bandligini ta'minlash borasida tijorat banklari, xususan "Hamkorbank" ATB tomonidan olib borilayotgan amaliy ishlar katta ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi bosqichda moliyaviy institutlarning kreditlash faoliyati orqali mehnat bozoriga bevosita ta'sir ko'rsatilmoqda, ya'ni yangi ish o'rinlari yaratilib, o'zini-o'zi band qilayotganlar soni ortmoqda.

Bugungi kunda banklar aholini iqtisodiy jihatdan faollashtirish, ularni rasmiy bandlik shakllariga jalb etish maqsadida bir nechta muhim yo'nalishlarda ish olib bormoqda: Ya'ni:

*Imtiyozli kreditlash amaliyoti:*

-kredit ajratishda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga — xususan, ishsiz yoshlar, xotin-qizlar, nogironligi bo'lgan shaxslar va chet eldan qaytgan mehnat migrantlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur guruhlar uchun past foizli, soddalashtirilgan shartlar asosida kreditlar ajratilishi ularning iqtisodiy faoliyat boshlash imkoniyatini oshiradi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



### *Onlayn kreditlash tizimi:*

-bank xizmatlarini raqamlashtirish doirasida "Hamkorbank" ATB tomonidan joriy etilgan **onlayn kreditlash tizimi** aholining moliyaviy resurslarga kirishini yengillashtirmoqda. Endilikda, fuqarolar bankka bormasdan turib, masofaviy tarzda kredit olish imkoniga ega bo‘ldilar. Bu, ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi aholiga katta qulaylik yaratmoqda.


### *Bandlikni qo‘llab-quvvatlovchi dasturlar bilan integratsiya:*

-banklar davlatning “Yoshlar – kelajagimiz”, “Ayollar daftari”, “Temir daftar” kabi ijtimoiy dasturlariga faol integratsiyalashgan. Ushbu tashabbuslar doirasida kredit olgan fuqarolar kichik biznes subyektiga aylanishi va o‘z navbatida yangi ish o‘rinlari yaratishi mumkin bo‘lmoqda.

### *Konsalting va maslahat xizmati ko‘rsatish:*

-tadbirkorlik faoliyati endi boshlayotgan shaxslar uchun banklar tomonidan biznes-reja tuzish, moliyaviy rejalashtirish, hisob-kitoblar yuritish bo‘yicha bepul maslahatlar taklif qilinmoqda. Bu xizmatlar kredit oluvchilarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga turtki bo‘lmoqda. O‘tgan yillarda ajratilgan mikrokreditlar hisobidan ko‘plab yangi biznes subyektlari tashkil etilgan, bu esa aholi bandligiga sezilarli hissa qo‘shgan. Masalan, 2020–2023-yillar oralig‘ida “Hamkorbank” ATB orqali moliyalashtirilgan loyihalar natijasida minglab ish o‘rinlari yaratilgan. Shu bilan birga, mavjud holatning chuqur tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayrim hududlarda quyidagi muammolar saqlanib qolmoqda:

- **Kredit resurslarining maqsadsiz sarflanishi:** Ajratilgan mablag‘lar ba’zan biznesga emas, boshqa ehtiyojlarga yo‘naltiriladi;
- **To‘lov intizomining pastligi:** Qarzlarni qaytarish muddati buziladi, bu esa banklar uchun moliyaviy xavf tug‘diradi;
- **Moliyaviy savodxonlikning yetishmasligi:** Aholi orasida kredit olish va uni to‘g‘ri





boshqarish ko'nikmasi yetarli emas;

- **Kreditga kirish imkoniyatlarining hududlar bo'yicha teng bo'lmashligi:** Ba'zi olis hududlarda moliyaviy xizmatlar hanuz cheklangan. Bank kreditlash tizimi orqali aholi bandligini ta'minlash — bu nafaqat moliyaviy jarayon, balki ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Mavjud imkoniyatlardan to'liq va samarali foydalanish uchun bank tizimi bilan bir qatorda davlat organlari, mahalliy hokimiyatlar va jamoatchilik hamkorlikda ishlashi zarur.

**5 rasm. “Hamkorbank” ATBning 2021-2024-yilga qadar  
bank balansi tarkibi**

2023-yilning 31-dekabr holatiga ko'ra, “Hamkorbank” ATB aktivlari 21,152 milliard so'mni tashkil etgan bo'lib, bu 2022-yilning shu sanasidagi 16,914 milliard so'mdan 4,238 milliard so'mga oshganini ko'rsatmoqda. Bu o'sish bankning umumiy aktivlari hajmida sezilarli o'sishni anglatadi va u bankning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini kengaytirishga, shu bilan birga moliyaviy barqarorligini ta'minlashga yordam berayotganini ifodalaydi.

Bankning 2023-yil 31-dekabr holatiga ko'ra jami majburiyatlari 17,096 milliard so'mni tashkil etgan, 2022-yil 31-dekabrda esa ular 14,077 milliard so'mga teng edi. Bu o'sish 3,019 milliard so'mni tashkil qilib, bankning majburiyatlarining sezilarli darajada oshganini ko'rsatmoqda. O'z mablag'lari esa 2023-yil yakuniga ko'ra 4,055 milliard so'mga yetgan, bu 2022-yil yakunidagi 2,836 milliard so'mga nisbatan 1,219 milliard so'mga ko'pdir. Bu o'zgarish bankning mustahkam moliyaviy holatini va yirik loyihalarga sarmoya kiritish imkoniyatlarini ta'minlamoqda.

Bankning jami aktivlari va majburiyatlari 2023-yilda 21,152 milliard so'mni tashkil etgan, 2022-yil yakunida esa bu ko'rsatkich 16,919 milliard so'mni tashkil qilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, “Hamkorbank” ATB o'z faoliyatini kengaytirishda davom etmoqda va moliyaviy barqarorlikni oshirishga qaratilgan investitsiyalarni amalga oshirmoqda.

2024-yil dekabr oyida bankning umumiy kapitali va majburiyatlari 26,472 milliard so'mga yetgan bo'lib, jami foiz daromadi 3,135 milliard so'mni tashkil qilgan. Foiz xarajatlari esa 1,713 milliard so'mga yetdi. Aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar hisobga olinganida, sof daromad 1,421 milliard so'mni tashkil qilgan bo'lsa-da, zaxiralar baholanganidan keyin bu ko'rsatkich 873 million so'mga tushgan.

Jami foiz daromadi 6,226 milliard so'mni tashkil etgan, foiz xarajatlari esa 4,820 milliard so'mga yetgan. Bankning operatsion xarajatlarini hisobga olgan holda, sof daromad 2,279 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, jami operatsion xarajatlar esa 985 million so'mga teng bo'lgan. Soliq to'lash va boshqa o'zgarishlar inobatga olinganida, bankning oldingi sof foydasi 1,294 milliard so'mga ko'tarilgan.

Shu bilan birga, tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda tijorat banklari tomonidan kredit operatsiyalarini amalga oshirishda hali ham bir qancha muammolar va qiyinchiliklar mavjud. Banklarning kreditlash faoliyatida samarali strategiyalarni amalga oshirishda yuzaga kelayotgan ba'zi to'sqinliklar va rasmiy hujjatlar bilan bog'liq muammolar,





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



shuningdek, moliyaviy resurslar taqchilligi kabi omillar, bank tizimi faoliyatining to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Aholi bandligini ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirishga oid farmon va qarorlar. – Toshkent, 2019–2024 yy.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklari faoliyati va kreditlash ko'rsatkichlari bo'yicha hisobotlar. – Toshkent, 2020–2024 yy.
3. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. Aholi bandligi holati bo'yicha statistik ma'lumotlar. – Toshkent, 2023.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va bandlik ko'rsatkichlari. – Toshkent, 2023.
5. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – New York: Pearson Education, 2021.
6. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti va aholi bandligi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
7. Rasulov N.M. Bank ishi va kreditlash asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

